

MARKAZIY OSIYO XVII-XIX ASRLARDAGI TA'LIM TIZIMI

*University of management and
Future technologies
Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich
talabalari Janaliyeva Shoxnoza,
Abbasova Nigora, Umirova Dinora.*

Anotatsiya: Mazkur ishda musulmon davlatlarda ta'lim va tarbiya tizimining shakllanishi, mazmuni hamda zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari yoritilgan. Unda islom ta'limotida ilm olishning ahamiyati, Qur'on va Hadislarda ta'lim-tarbiyaga berilgan e'tibor, shuningdek, tarixiy davrlarda maktab va madrasalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, musulmon davlatlarda ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, milliy va diniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ishda zamonaviy ta'lim islohotlari, innovatsion texnologiyalarning ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etilishi hamda globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiyaning istiqbollari ochib berilgan. Mazkur annotatsiya pedagogika va tarbiya fanlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, o'qituvchilar hamda ushbu mavzuga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun foydali hisoblanadi.

Annotation: This paper examines the formation, content, and contemporary development trends of the education and upbringing system in Muslim countries. Particular attention is paid to the significance of acquiring knowledge in Islamic teachings, the role of the Qur'an and Hadith in the development of education and moral upbringing, as well as the historical importance of schools and madrasas in societal development. The study analyzes issues of spiritual and moral education, the harmonious integration of national and religious values within the educational process. In addition, modern educational reforms, the implementation of innovative and information technologies, and future prospects for education and upbringing in the context of globalization are highlighted. This work may be useful for students of pedagogy, educators, and researchers interested in the issues of education and upbringing in Muslim

Kalit so'z: Jadid, yangi usul, usuli savtiya, madrasa, musulmon maktablari, darslik, Behbudiy, Marjoniy, domla Fozil G'ijduvoni, Mo'minjon Vobkandiy, Xudoyberdi Boysuniy, ta'lim, diniy islohotchilik, tarbiya, taraqqiyot.

Keywords. Modern, new method, usuli savtiya, madrasa, Muslim schools, textbook, Behbudiy, Marjoniy, domla Fozil G'ijduvoni, Mo'minjon Vobkandiy, Xudoyberdi Boysuniy, education, religious reform, upbringing, progress.

Arab xalifaligi davrida masjidlar qoshida maktablar tashkil etilib, Shariat qoidalari asosida ta'lim berildi. Dastlab Qur'on, hadis, fiqh, arab tili va mantiq kabi diniy fanlar o'qitilgan bo'lsa, keyinchalik matematika, astronomiya, geografiya va kimyo kabi dunyoviy fanlar ham kiritilgan. Imomlar va mudarrislar yosh avlodga diniy bilim bilan birga axloqiy fazilatlarni ham singdirganlar.

Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya masalasi jadid ma'rifatchilari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, domla Fozil G'ijduvoni, Mo'minjon Vobkandiy, Xudoyberdi Boysuniy kabi ziyolilar faoliyatida muhim o'rin egalladi. Ular ta'limni isloh qilish orqali jamiyatni ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyot sari yetaklash mumkinligini ta'kidladilar. Jadid maktablarida tarbiya masalasi ham alohida ahamiyat kasb etib, yosh avlodga axloqiy fazilatlar, milliy ong, vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik ruhini shakllantirish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Mazkur maqolada musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, jadidchilik harakati doirasida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari, yangi usul maktablarining mazmun-mohiyati hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, diniy va dunyoviy ta'lim uyg'unligi asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlarning ahamiyati tahlil qilinadi.

1917-yilgi Oktyabr inqilobi ortidan mintaqada siyosiy tuzum tubdan o'zgardi. Yangi hukumatning diniy ta'limga nisbatan salbiy munosabati, ayniqsa 1920-yillarga borib, madrasa tizimining inqiroziga olib keldi. IX–XII asrlarda Islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda tarqaldi. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida 937-yilgi yong'inda zarar ko'rgan Forjak madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Abbosiylar davrining oxirlarida, saljuqiylar vaziri Niyom al-Mulk tomonidan “Madrasai Nizomiyya” nomi bilan Eron, Mesopotamiya va Xurosonda tarixda birinchi rasmiy madrasalar tarmog'i qurilgan. U madrasalar keyingi bir necha asrlar davomida musulmon dunyosining katta qismiga aylanib, o'zining shakllanish davrida madrasa atamasi oliy o'quv dasturida dastlab faqat “diniy fanlar” kiritilgan bo'lsa, keyinchalik ko'plab madrasalarda mantiq, falsafa, matematika kabi diniy va dunyoviy fanlar o'qitildi.

XIX asrga qadar deyarli o'zgarmay kelgan madrasalardagi ta'lim jarayoni 3 bo'limdan iborat bo'lgan. Birinchisi “andi” [past] bo'lim deyilsa, ikkinchisi “avsat” [o'rta] bo'lim nomi bilan yuritilgan. Uchinchisi esa “a'lo” [oliy] bo'limi nomi atalib ushbu uch bo'limning har birida kerakli o'quv darslari soddadan va murakkab sistemasida o'qitila borilgan. Madrasaning birinchi bo'limida ya'ni 9–10 davomida fors va arab tillarida qisqacha musulmon qonunlari, arab grammatikasi o'qitilgan. Madrasalarda o'rta bo'lim arabchasiga “avsat” atalib bu bo'limga 7-8 yil ajratilgan. Bu bo'limda mantiqqa oid bilimlar o'rgatilgan. Madrasada ilm olishning past va o'rta pog'onalaridan o'tilgan o'qitish jarayonlarining oxirgi 4 yili “oliy” bo'limiga

o'qitilgan. Bu bo'limda islohiyat bilan Islom huquqshunosligi ya'ni fiqh kabi fanlar o'zlashtirilgan. Shuningdek madrasalarda dunyoviy ta'lim ham diniy ta'lim ham o'rgatilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon jamiyatlarida, xususan, Turkiston hududida ta'lim-tarbiya tizimini yangilash zarurati keskin ravishda kun tartibiga chiqdi. An'anaviy maktab va madrasalarda ta'lim asosan diniy fanlar bilan cheklanib, o'qitish usullari zamon talablariga to'liq javob bermay qolgan edi. Shu bois jamiyat taraqqiyoti, xalqning savodxonlik darajasini oshirish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ta'lim sohasida islohotlar olib borish ehtiyoji paydo bo'ldi.

XIX asr boshida Abu Nasr Kursaviy boshchiligida ilg'or ma'qifarpavar mudarrislar Buxorodagi 200 dan ortiq madrasalarni isloh qilish g'oyasiniko'tarib chiqdilar. Qadimiylar ularni kofirlar, xudosizlar deb aybladilar. Jadidlarning asosiy maqsadi aholini, qolaversa yos avlodga zamonaviy bilimlar berishlik va zamona ilmlaridan xabarsiz qolmasdan rivojlanishga intilish edi. Ta'limni isloh etishni yangi maktablar ochish bilan boshlagan jadidlar endilikda ushbu "usuli jadid" nom olgan ta'lim maskanlarida darsliklarni ham yarata boshladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki birinchi jadid maktabi Ismoil G'aspirali tomonidan 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda ochilgan.

Ana shunday tarixiy sharoitda jadidchilik harakati vujudga kelib, u musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan yangilashga qaratildi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan "usuli savtiya" (yangi usul) asosida tashkil etilgan maktablarda o'qitish jarayoni soddalashtirildi, darsliklar yangilandi va ta'lim mazmuniga dunyoviy fanlar kiritildi. Bu maktablarda Qur'on, hadis va fiqh bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlar ham o'qitila boshlandi.

1917-yilgacha Samarqandda Ko'kaldosh, Mirzo Ulug'bek, Sherdor, Tillakori kabi yirik madrasalar faol edi. Ularda asosan Qur'on, hadis, fiqh, mantiq, arab tili, kabi fanlar o'qitilar, diniy kadrlar tayyorlanardi. Madrasalar faqat diniy emas balki umumiy savodxonlik markazlari sifatida ham xizmat qilgan.

Jadidlar islohoti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati avj oldi. Samarqandda faoliyat ko'rsatgan jadidlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy madrasalarda dunyoviy fanlarni joriy qilish, ta'lim metodikasini yangilash tarafdori edilar. Ular tomonidan yangi usulda dars beradigan "usuli jadid" maktablarni tashkil qilindi, bu madrasalar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Madrasa arabcha "darasa" [o'qimoq] so'zidan olingan bo'lib, ta'limgoh ma'nolarini anglatadi hamda maktab va madrasa mudarrisleri davlat boshqaruvi xodimlari-mufti, qozi, alam kabi ijtimoiy va aniq fanlar mutaxassislarini tayyorlab beruvchi oliy bilimgoth hisoblanadi.

Jadidlar ta'lim-tarbiyani faqat maktabda o'rgatiladigan vosita emas, balki bu o'quvchida mustaqil fikrlash va ijodkorlik ruhini kashf etish, deb hisoblagan. Ular an'anaviy fanlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ham urg'u beradigan yangi turdagi jadid maktablarini Toshkent, Buxoro, Qo'qon kabi yirik shaharlarda tashkil etdilar. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyandaligidan biri Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Risolayi asbobi savod" va "Kitabul atfol" nomli asarlarida an'anaviy o'qitish usullarini isloh qilish bilan birgalikda zamonaviy ta'lim tizimini amalda qo'llash zarurligini ta'kidlagan.

U pedagoglarni o'quvchida mustaqil fikrlash va atrof olamni savolga tuta olish qobiliyatini rivojlantirishga chaqirdi.

Madrasa va maktablar ta'lim dasturlarini tubdan isloh qilish g'oyasini Rahimjon Marjoniy o'zi taqdim etilgan dasturda quyidagi olti talabni kiritgan edi:

1. Qur'ondgi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar;
2. Kishilarni bir-biriga ko'r-ko'rona ergashishi ma'n qilinsin;
3. Madrasalarda o'qitiladigan heshiya va irq kabi foyidasiz darslar olib tashlash.
4. Madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari, Islom tarixi kabi darslar o'tilsin
5. Arifinetika, tarix, jug'rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsala va boshqa dunyoviy fanlarni o'qitishga qarshilik ko'rsatilmasin.
6. Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhisalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Xulosa: Musulmon davlatlarda ta'lim-tarbiya tizimi tarixiy ildizlarga ega bo'lib, diniy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan. Qur'on va Hadis ta'limotida ilm olish va tarbiya berishning o'rni katta ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyatning rivojida asosiy omil hisoblanadi. Tarixiy davrlarda maktab va madrasalar jamiyatda bilim tarqatish, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Zamonaviy davrda esa musulmon davlatlarida ta'lim islohotlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va global jarayonlarga moslashuv orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga intilmoqda. Shu bilan birga, milliy va diniy qadriyatlarni saqlash, shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Natijada, musulmon davlatlarda ta'lim-tarbiya tizimi nafaqat ilmiy bilim berish, balki shaxsni ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladigan kompleks jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Faydalangan adabiyotlar va elektron saytlar:

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.

2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.
9. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" www.ziyounet.com.
10. Samarqand tarixi – I.M.Muminov, V.A.Abdullayev va boshq., Toshkent: Fan, 197x y. – 484 b Samarqand tarixiga oid fundamental tadqiqot bo'lib, unda 1917–1921-yillardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ham yoritilgan.
11. <https://slaydchi.uz/product/vii-asrdan-xiv-asrning-birinchi-yarmigacha-orta-osiyoda-tarbiya-maktab-va-pedagogik-fikrlar/>
12. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi Markazi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yangi_usul_maktablari
14. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/markaziy-osiyoda-islom-ta-limotining-yoyilishi-va-uning-tarbiya-maktab-pedagogik-fikr-taraqqiyotiga-ta-siri>